International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service

**Vol. 1 Issue 1 | pp.** 257-263 **| ISSN:** XXXX-XXXX

**Available online @** https://globalconf.net/index.php/samisi

*Article*

# Resource-Saving and Infrastructural Approaches to Enhancing Financial Performance In Regional Housing Construction Enterprises (Section 3)

**Diyarova Mahliyo Islamovna*[1] , Tilyaxodjayeva Ziyodaxon Avazovna[2]**

1. SamISI, Moliya kafedrasi dotsenti v.b.
2. TKXU Samarqand filiali 4-bosqiç talabasi.
   Correspondance: maxlişka665@gmail.com

**Abstract:** The article analyses the main factors that reduce the financial performance of regional housing construction companies: uncontrolled cost growth, losses of building materials and the neglect of infrastructure in housing pricing. Based on data from construction companies in Samarkand region, the study proposes infrastructure location coefficients, an incentive system based on a rhythm coefficient and a five-level housing model. The study also substantiates the link between these proposals and the principles of green construction – resource efficiency, energy efficiency and the reduction of construction waste.

**Keywords:** housing construction, construction company, financial performance, infrastructure coefficient, resource efficiency, rhythm coefficient, green construction, green economy, regional development.

**Citation:** Islamovna, D. M & Avazovna, T. Z. Resource-Saving and Infrastructural Approaches to Enhancing Financial Performance In Regional Housing Construction Enterprises (Section 3). International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 257-263.

Received: 12th Oct 2026
Revised: 26th Oct 2026
Accepted: 30th Oct 2026
Published: 22th Nov 2026

**Copyright:** © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

## 1. Introduction

Quriliş tarmoği barqaror iqtisodiy rivojlanişning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi tajribasi uşbu tarmoqning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Yevrostat ma'lumotlariga köra, 2024-yilda quriliş sektori Yevropa Ittifoqining jami yalpi qöşilgan qiymatida 5,5 foizlik uluşni taşkil etgan. Şuningdek, 2024-yilda Yevropa Ittifoqida uy-joy qurilişiga yönaltirilgan investitsiyalar YaIMning 5,3 foiziga teng bölgan [1]. Bu körsatkiçlar quriliş tarmoğining nafaqat iqtisodiy ösiş, balki uy-joy infratuzilmasini rivojlantiriş va aholi turmuş sifatini oşirişdagi örnini ham namoyon etadi.

Özbekistonda ham quriliş tarmoği jadal rivojlanib, iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanmoqda. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasining SIAT ma'lumotlar bazasiga köra, 2024-yilda mamlakatda bajarilgan quriliş işlari hajmi 259,65 trln sömni taşkil etgan. 2025-yil yakunlari böyiça esa uşbu körsatkiç 313,8 trln sömga yetgan. Milliy statistika qömitasining 2026-yil 22-yanvarda e'lon qilgan ma'lumotida 2025-yildagi quriliş işlari hajmining 2024-yilga nisbatan ösişi 14,2 foiz sifatida qayd etilgan [2]. Mazkur körsatkiçlar quriliş sohasida investitsion faollik va işlab çiqariş kölamining ortib borayotganini körsatadi.

Quriliş tarmoğining rivojlanişi davlatning uzoq muddatli strategik maqsadlari bilan ham çambarças boğliq. Xususan, Özbekiston Respublikasining «Özbekiston – 2030» strategiyasida aholini sifatli va arzon uy-joy bilan ta'minlaş, zamonaviy şaharsozlik infratuzilmasini şakllantiriş hamda hududlarni kompleks rivojlantiriş ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [3]. Şu bilan birga, quriliş tarmoğini modernizatsiya qiliş, innovatsion

texnologiyalarni joriy etiş, energiya tejamkor quriliş materiallaridan foydalaniş va şaharsozlik faoliyati samaradorligini oşirişga qaratilgan 2021–2025-yillarga möljallangan strategiya sohaning institutsional rivojlanişi uçun muhim asos bölib xizmat qildi [4].

Quriliş tarmoğining jadal ösişi uning atrof-muhitga ta'sirini ham kuçaytirmoqda. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Binolar va quriliş böyiça global alyansning (GlobalABC) 2024–2025-yillar uçun global hisobotiga köra, binolar va quriliş sektori jahondagi energiya iste'molining 32 foizi va karbonat angidrid çiqindilarining 34 foiziga töğri keladi, bunda sement va pölat kabi materiallarni işlab çiqariş binolar bilan boğliq $CO_2$ çiqindilarining 18 foizini taşkil etadi [4]. Şu sababli, xalqaro amaliyotda yaşil quriliş – loyihalaşdan tortib foydalaniş va utilizatsiyagaça bölgan butun hayotiy sikl davomida energiya, suv va materiallarni tejaydigan, çiqindilarni kamaytiradigan hamda soğlom yaşaş muhitini yaratadigan quriliş konsepsiyasi sifatida keng qöllanilmoqda.

Özbekistonda ham uşbu yönaliş davlat siyosati darajasiga kötarilgan, jumladan 2019–2030-yillar davrida «yaşil» iqtisodiyotga ötiş strategiyasida 2030-yilgaça energiya samaradorligini ikki baravar oşiriş hamda yalpi içki mahsulot birligiga töğri keladigan issiqxona gazlari taşlamalarini 2010-yil darajasiga nisbatan 10 foizga kamaytiriş maqsad qilib qöyilgan. 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qaror bilan esa 2030-yilgaça «yaşil» iqtisodiyotga ötiş va «yaşil» ösişni ta'minlaş dasturi tasdiqlanib, iqtisodiyotning barça tarmoqlarida resurslarni tejaş vazifasi belgilangan. Quriliş tarmoği materiallar va energiyani eng köp iste'mol qiluvçi tarmoqlardan biri bölgani uçun uşbu maqsadlarga erişişda hal qiluvçi örin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Quriliş sohasida kiçik biznesni tartibga solişning iqtisodiy mexanizmlari U.V.Gafurov tomonidan [5], hududlarda quriliş industriyasini rivojlantiriş strategiyasining taşkiliy-iqtisodiy mexanizmlari R.I.Nurimbetov va hammualliflar tomonidan [6] tadqiq etilgan. I.X.Davletov Özbekistonda uy-joy qurilişining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilgan [7].

Yaşil qurilişning nazariy va amaliy asoslari xorijiy adabiyotlarda keng yoritilgan. C.J.Kibert barqaror qurilişni resurslar sarfini kamaytiriş, materiallarni qayta foydalaniş, atrof-muhitni muhofaza qiliş va soğlom yaşaş muhitini yaratiş tamoyillari asosida tizimlaştirgan hamda yaşil binolarni loyihalaş va qurişning hayotiy sikl yondaşuvini asoslagan [8]. Muallifning avvalgi işlarida esa quriliş obyektlarini modellaştiriş va rağbatlantiriş asoslari hamda quriliş korxonalarida resurs tejamkorlikning moliyaviy samarasi körib çiqilgan [9; 10].

Biroq mavjud tadqiqotlarda quriliş korxonasi darajasida infratuzilma omilini narx şakllanişiga raqamli koeffitsiyent körinişida kiritiş, xarajat va xatarlarni bosqiçma-bosqiç boşqariş hamda resurs yöqotişlarini rağbatlantiriş tizimi orqali kamaytiriş masalalari yaxlit holda körib çiqilmagan. Şuningdek, yaşil qurilişga oid tadqiqotlarda asosan yirik loyihalar va binolarning ekologik körsatkiçlari tahlil qilingan bölib, hududiy kiçik va örta quriliş korxonalarining moliyaviy natijadorligini oşiriş yöllarini yaşil quriliş tamoyillari bilan boğlaş masalasi yetarli darajada örganilmagan.

## 2. Materials and Methods

Tadqiqot davomida Samarqand viloyatida faoliyat yurituvçi turar-joy quriliş korxonalari, jumladan, "TEMP" xususiy korxonasi, "TOLIB BOBO" MÇJ va "AGROMIR BUILDINGS" MÇJ hamda Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi, Quriliş va uy-joy kommunal xöjaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlaş, xronometraj kuzatuvi, dispersion tahlil va matematik modellaştiriş usullaridan foydalanildi.

## 3. Results and Discussion

Hududiy quriliş korxonalarida moliyaviy natijadorlikning past darajada saqlanib qolayotgani mazkur sohada mavjud iqtisodiy va taşkiliy muammolarning yetarliça

bartaraf etilmaganligini körsatadi. Xususan, quriliş materiallari va mehnat resurslari qiymatining oşişi, aylanma mablağlardan foydalaniş samaradorligining pastligi, quriliş loyihalarida xarajatlarni rejalaştiriş va nazorat qiliş tizimining takomillaşmaganligi, şuningdek, moliyaviy resurslarni boşqarişda zamonaviy yondaşuvlarning yetarli darajada qöllanilmasligi korxonalar rentabelligiga salbiy ta'sir körsatmoqda. Natijada, quriliş hajmi va jalb etilayotgan investitsiyalar ortib borayotgan şaroitda ham korxonalarning moliyaviy natijalari bilan foydalanilayotgan resurslar örtasida mutanosiblik ta'minlanmayapti. **Bu esa hududiy uy-joy qurilişi korxonalarida moliyaviy natijadorlikni oşiriş va resurs tejamkorligini ta'minlaşning mavjud usullari örtasida nomuvofiqlik mavjudligini hamda ularni takomillaştiriş zaruratini yuzaga keltiradi.**

Şu bilan birga, quriliş maydonida isrof bölgan har bir birlik material nafaqat moliyaviy, balki ekologik yöqotiş hamdir, çunki u qöşimça işlab çiqariş, taşiş va çiqindi bilan boğliq energiya sarfini anglatadi. Demak, korxonaning moliyaviy natijadorligi va yaşil quriliş talablari bir-biriga qarama-qarşi emas, balki bir xil manba – resurslardan oqilona foydalanişga tayanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – Samarqand viloyati uy-joy qurilişi korxonalarida moliyaviy natijadorlikni oşirişning infratuzilmaviy va resurs tejamkor yöllarini yaşil quriliş tamoyillari bilan uyğun holda işlab çiqiş va asoslaşdan iborat.

Tahlillar körsatişiça, quriliş tarmoğining YaIMdagi uluşi 2024-yildagi 7,2 foizdan 2025-yilda 7,3 foizga oşgan. Bu tarmoq ösişi asosan ekstensiv omillar hisobiga ta'minlanayotganini, birlik xarajatlarni kamaytiriş salohiyati esa töliq işga solinmaganini körsatadi. Mazkur körsatkiçlar quriliş tarmoğida işlab çiqariş faolligi va iqtisodiy faollik ortib borayotganini tasdiqlaydi. Biroq, tarmoq miqyosidagi ösişning özi hududiy quriliş korxonalarida moliyaviy natijadorlik va resurslardan foydalaniş samaradorligi yuqori ekanligini anglatmaydi. Aksinça, quriliş tannarxi, moddiy resurslar sarfi, mehnat unumdorligi va korxonalar rentabelligini özaro boğliq holda baholaş zarurati mavjudligini körsatadi.

Tadqiqodimiz davomida xronometraj kuzatuvlari "TOLIB BOBO" MÇJda kunlik xarajatlarning sezilarli qismi rejalaştirilmagan yöqotişlarga töğri kelişini aniqladik.

Uy-joyning infratuzilmaviy joylaşuvini narx şakllanişida hisobga oliş uçun quyidagi boğliqlik taklif etildi:

$$P_{\text{i}} = P_0 \times k_{\text{i}}, \quad (1)$$

bu yerda $P_{\text{i}}$ – i-joylaşuvdagi uy-joyning 1 m² sotiş bahosi; $P$ – şahar markazidagi bazaviy baho; $k_{\text{i}}$ – joylaşuv koeffitsiyenti (1-jadval).

Şuningdek, transport va ta’minot xodimlari mehnatini baholaş uçun ritm koeffitsiyenti qöllanildi:

$$R_{\text{k}} = N_d / A_d, \quad (2)$$

bu yerda, $N_d$ – smena davomidagi barça reyslarning normativ davomiyligi; $A_d$ – ularning amaldagi davomiyligi. $R_{\text{k}} \geq 1{,}0$ bölganda tarif stavkasining 25 foizigaça mukofot beriladi, koeffitsiyent har 0,01 ga pasayganda mukofot 1 foiz bandga kamayadi, $R_{\text{k}} = 0{,}75$ da esa mukofot hisoblanmaydi.

Infratuzilmaning rivojlanganlik darajasini narxga kiritiş uçun işlab çiqilgan joylaşuv koeffitsiyentlari 1-jadvalda keltirilgan.

*1-jadval*

**Uy-joylarni joylaşuvi böyiça tavsiflaş koeffitsiyentlari**

| $k_i$ | Joylaşuv | Infratuzilma holati |
|---|---|---|
| 1,0 | Şahar markazida | Infratuzilma yuqori darajada rivojlangan |
| 0,9 | Markazdan 2 km uzoqda | Maişiy xizmat şoxobçalari kam |
| 0,8 | Markazdan 4 km uzoqda | Jamoat transporti qatnovi siyrak |
| 0,7 | Markazdan 5 km uzoqda | Moliyaviy xizmatlar yetarli emas |

*Manba: muallif işlanmasi.*

Olingan natijalar moliyaviy natijadorlikni oşiriş va yaşil iqtisodiyot maqsadlari bir-biriga zid emasligini körsatadi. Materiallar yöqotilişining 6 foizgaça kamayişi va quriliş xarajatlarining 10,2 foizga qisqarişi bir vaqtning özida korxona foydasini oşiradi hamda tabiiy resurslar va energiya sarfini kamaytiradi. Xorij tajribasiga köra, uy-joy qurilişini zamonaviy texnologiyalar asosida taşkil etiş dastlab 30 foizgaça quriliş materiallarini tejaş imkonini beradi. Kuala-Lumpurdagi nol yoki minimal energiya sarflovçi uy loyihasi esa ekologik toza konstruksiyalar va suvni qayta aylantiriş tizimlari amalda özini oqlaşini tasdiqlaydi.

Joylaşuv koeffitsiyentlari hududiy rivojlaniş nuqtai nazaridan ham ahamiyatli hisoblanadi. Ular markazdan uzoqdagi uy-joylarni arzonroq taklif etib, aholining tölov qobiliyatiga mos bozor segmentini şakllantiradi. Şu bilan bir qatorda, mahalliy hokimiyat uçun infratuzilmani rivojlantiriş ustuvorligini aniqlaşda signal vazifasini bajaradi: hududda infratuzilma yaxşilangani sari koeffitsiyent ham oşib boradi. Bu yondaşuv Yevropa Ittifoqidagi hududiy siyosatning “infratuzilma–uy-joy–bandlik” boğliqligiga mos keladi.

*2-jadval*

**Işlab çiqilgan takliflarning amaliyotga joriy etiliş natijalari**

| Taklif | Korxona | Erişilgan natija |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| Joylaşuv koeffitsiyentlari (1,0–0,7) | “TEMP” XK, “Elegant” turar-joy kompleksi | Uy-joy sotişning örtaça bahosi 6,3% ga pasaydi |
| Xarajat va xatarlarni boşqarişning ikki bosqiçli modeli | “TOLIB BOBO” MÇJ, “Manzara” turar-joy majmuasi | Buyurtmaçi talablarini qondiriş muddati örtaça 26 kunga qisqardi; har bir iste’molçi uçun 2,48 mln söm tejaldi |
| Ritm koeffitsiyentiga asoslangan rağbatlantiriş ($0 \leq$ Pbonus $\leq 0,25$) | “AGROMIR BUILDINGS” MÇJ | Materiallarni öz vaqtida yetkazib beriş 11% ga oşdi; materiallar yöqotilişi 6% gaça pasaydi |
| Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasiga asoslangan beş darajali turar-joy modeli | “TEMP” XK | Quriliş xarajatlari 10,2% ga kamaydi; sof daromad 7,0% ga oşdi |

Ritm koeffitsiyentiga asoslangan rağbatlantiriş mehnat natijasini moddiy manfaatdorlik bilan bevosita boğlaydi. Bu taklif ayniqsa kiçik quriliş korxonalari uçun qulay, çunki u qöşimça investitsiya talab qilmaydi va mavjud reys kartalari asosida joriy etiladi (2-jadvalga qarang).

Işlab çiqilgan takliflarning yaşil quriliş tamoyillari bilan boğliqligi 3-jadvalda umumlaştirilgan. Körinib turibdiki, har bir taklif moliyaviy samara bilan bir qatorda muayyan ekologik samarani ham beradi, ya’ni korxona uçun tejalgan har bir söm resurs va energiya tejalişi bilan bevosita boğliqligini köriş mumkin.

*3-jadval*

**Işlab çiqilgan takliflarning yaşil quriliş tamoyillari bilan boğliqligi**

| Taklif | Yaşil quriliş tamoyili | Ekologik-iqtisodiy samara |
|---|---|---|
| Joylaşuv koeffitsiyentlari (1,0–0,7) | Kompakt va infratuzilma bilan ta’minlangan turar-joy muhiti | Infratuzilma tanqis hududlarni aniqlab, ularda jamoat transporti va xizmat körsatiş obyektlarini rivojlantirişga yönaltiradi; aholining uzoq masofaga qatnovi bilan boğliq yoqilği sarfi va çiqindilarni kamaytirişga xizmat qiladi |
| Xarajat va xatarlarni boşqarişning ikki bosqiçli modeli | Hayotiy sikl böyiça xarajat va resurslarni boşqariş | Buyurtmaçi talablarini qondiriş muddatining 26 kunga qisqarişi texnika işlaşi, yoqilği va energiya sarfini hamda qayta işlov beriş bilan boğliq çiqindilarni kamaytiradi |
| Ritm koeffitsiyentiga asoslangan rağbatlantiriş | Resurs tejamkorlik, çiqindilarni kamaytiriş, past uglerodli logistika | Materiallar yöqotilişi 6% gaça pasaydi; keçikkan va samarasiz reyslar qisqarişi transport yoqilğisi sarfi va $CO_2$ çiqindilarini kamaytiradi |
| Beş darajali turar-joy modeli | Ehtiyojga mos loyihalaş, materiallardan samarali foydalaniş | Quriliş xarajatlari 10,2% ga kamaydi; ortiqça maydon va materiallar sarfining oldi olinib, binoning energiya iste’moli qisqaradi |

*Manba: tahlil va hisob-kitoblar natijalariga asoslangan muallif işlanmasi.*

Samarqand viloyati şaroitida yaşil qurilişni yanada çuqurroq joriy etiş uçun qöşimça imkoniyatlar mavjud: issiqlik izolyatsiyasi yuqori bölgan devor va deraza konstruksiyalari, quyoş suv isitgiçlari va fotoelektr panellari, yomğir va kulrang suvlarni qayta foydalaniş tizimlari, quriliş çiqindilarini saralaş va qayta işlaş hamda mahalliy xomaşyodan işlab çiqarilgan materiallardan foydalaniş. Viloyatning yuqori quyoş insolyatsiyasi va keskin kontinental iqlimi energiya tejamkor binolarga bölgan iqtisodiy talabni oşiradi, çunki isitiş va sovutiş xarajatlari uy-joy egalari uçun asosiy kommunal

yuklardan biri hisoblanadi. Yaşil yeçimlar uçun dastlabki xarajatlarning bir oz ortişi ekspluatatsiya davridagi tejaş hisobiga qoplanişi mumkin, bu esa energiya samarador uy-joyni iste'molçi uçun ham, quriliş korxonasi uçun ham raqobat ustunligiga aylantiradi. Bunday yondaşuv joylaşuv koeffitsiyentlari bilan birgalikda qöllanilganda, markazdan uzoqdagi arzonroq uy-joylarning kommunal xarajatlari ham pasayib, ularning aholi uçun umumiy qulayligi oşadi.

## 4. Conclusion

Tadqiqot natijalariga köra quyidagi xulosa va takliflar işlab çiqildi:

1. Hududiy uy-joy qurilişi korxonalarida moliyaviy natijadorlik pastligining asosiy sabablari – xarajatlarning nazoratsiz ösişi, materiallar yöqotilişi va narx şakllanişida infratuzilma omilining hisobga olinmasligidir.

2. Uy-joy narxini belgilaşda 1,0–0,7 oraliğidagi joylaşuv koeffitsiyentlarini qöllaş sotiş bahosini 6,3 foizga pasaytirib, uy-joyni aholi uçun arzonroq qiladi. Uşbu koeffitsiyentlarni hududiy şaharsozlik va narx siyosatiga kiritiş taklif etiladi.

3. Ritm koeffitsiyentiga asoslangan rağbatlantiriş tizimi materiallar yöqotilişini 6 foizgaça kamaytirib, resurs tejamkorlik va yaşil iqtisodiyot maqsadlariga xizmat qiladi. Uni kiçik quriliş korxonalarida keng joriy etiş tavsiya etiladi.

4. Beş darajali turar-joy modeli quriliş xarajatlarini 10,2 foizga kamaytirib, sof daromadni 7,0 foizga oşiradi. Bu "Özbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan arzon uy-joy qurilişi maqsadlariga erişişga xizmat qiladi.

5. Işlab çiqilgan va amaliyotga joriy etilgan takliflar yaşil quriliş tamoyillari bilan uzviy boğliq bölib, moliyaviy natijadorlik va ekologik samaradorlikni bir vaqtda ta'minlaydi. Hududda yaşil qurilişni rivojlantiriş uçun energiya tejamkor uy-joy loyihalariga imtiyozli («yaşil») ipoteka kreditlari ajratiş, quriliş çiqindilarini qayta işlaş infratuzilmasini yaratiş hamda korxonalar faoliyatini baholaşda resurs tejamkorlik körsatkiçlarini moliyaviy körsatkiçlar qatoriga kiritiş tavsiya etiladi. Bu «yaşil» iqtisodiyotga ötiş strategiyasida belgilangan energiya samaradorligini oşiriş va issiqxona gazlari taşlamalarini kamaytiriş maqsadlariga erişişga hissa qöşadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Yevrostat. Housing in Europe – 2025 edition. Construction sector. European Commission, 2025.

https://ec.europa.eu/eurostat/web/interactive-publications/housing-2025

2. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi. Quriliş işlari hajmi (yillik). SIAT rasmiy statistik ma'lumotlar bazasi. – www.stat.uz
3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "«Özbekiston – 2030» strategiyasi töğrisida"gi PF-158-son Farmoni. 11.09.2023. – www.lex.uz.
4. UNEP – Global Status Report for Buildings and Construction 2024–2025. https://www.unep.org/news-and-stories/story/heres-how-buildings-contribute-climate-çange-and-what-can-be-done-about-it
5. Gafurov U.V. Kiçik biznesni davlat tomonidan tartibga solişning iqtisodiy mexanizmlarini takomillaştiriş. Monografiya. – T.: Moliya, 2016. – 208 b.
6. Nurimbetov R.I., Zaynutdinov Ş.N., Salayev S.K., Jumaniyazov B.B., Taşmuxamedova K.S. Özbekiston mintaqalarida quriliş industriyasini rivojlantiriş strategiyasining taşkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillaştiriş. Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2017. – 288 b.

7. Davletov I.X. Sovremennye tendentsii razvitiya zhilişçnogo stroitelstva v Uzbekistane. Monografiya. – T.: Umid Dizayn, 2024. – 144 s.
8. Kibert C.J. Sustainable Construction: Green Building Design and Delivery. 5th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2022.
9. Diyarova M., Zaynalov J. The Basis of Modeling and Stimulation of Construction Objects Development // AIP Conference Proceedings. – 2024. – Vol. 3244. – 040016. – https://doi.org/10.1063/5.0242053.
10. Diyarova M.I., Rahimov S.A. Модель оценки эффективности организационной структуры управления строительных фирм //THE INNOVATION ECONOMY. – 2026. – Т. 2. – №. 01.
11. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida Özbekiston Respublikasining «yaşil» iqtisodiyotga ötiş strategiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi PQ-4477-son Qarori. 04.10.2019. – www.lex.uz.
12. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgaça Özbekiston Respublikasining «yaşil» iqtisodiyotga ötişiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oşiriş böyiça çora-tadbirlar töğrisida”gi PQ-436-son Qarori. 02.12.2022. – www.lex.uz.
13. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbekiston Respublikasi quriliş tarmoğini modernizatsiya qiliş, jadal va innovatsion rivojlantirişning 2021–2025-yillarga möljallangan strategiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi PF-6119-son Farmoni. 27.11.2020. – www.lex.uz.